



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO YUQORI TEXNOLOGIYALAR MUHANDISLIK-
TEXNIKA INSTITUTI**

«NEFT VA GAZNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI» kafedrası

Oliy ta'limning

"Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi"

yo'nalishi uchun

**“Neft va gazni qayta ishlash korxonalari jihoz va uskunalari”
fanidanamaliy mashg'ulotlar bajarilishi bo'yicha**

USLUBIY KO'RSATMA

BUXORO – 2012 yil

Tuzuvchi:

dost. Adizov B.Z.

Takrizchilar:

t.f.n. Murodov M.

k.f.n. Sharipov Q.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-bob. Asosiy konstruktion materiallar va ularni tanlash.....	83
2-bob. Hidravlik hisoblar.....	8
2.1. Trubalarning gidravlik karshiliklarini xisoblash.....	8
2.2. Trubalarning optimal diametrini xisoblash.....	11
2.3. Nasos va ventilyatorlarni xisoblash.....	11
2.4. Stiklonlarni xisoblash.....	19
III- bob. Issiklik almashinish kurilmalarini xisoblash... ..	23
3.1.Issiklik almashinish kurilmalarini texnologik xisoblashning umumiy sxemasi.....	23
3.2. Issiklik berish koeffistentini xisoblash uchun tenglamalar.....	25
3.3. Issiklik almashinish kurilmalarining asosiy parametrlari va konsrukstiyalari.....	37
3.4. Issiklik almashinish kurilmalarini xisoblash.....	62
3.5. Xavoli sovutkichni xisoblash.....	
3.6. Trubali stilindrsimon vertikal pechni xisoblash.....	
3.7. Utxonasi devori nurlanuvchan trubali pechni xisoblash.....	
4-bob. Modda almashinish kurilmalarini xisoblash.....	
4.1. Rektifikastion kolonnani xisoblash.....	
4.2. Frakstiyalovchi absorberni xisoblash.....	
4.3. Rotor-diskli ekstraktor xisobi.....	73
4.4. Ekstrakstion kolonnani xisoblash.....	
5-bob. Reaktorlarni xisoblash.....	
5.1. Trubali piroliz reaktorini xisoblash.....	
5.2. Katalizatorning mavxum kaynash katlamli katalitik kreking kurilmasi reaktorini xisoblash.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati.....	102

1-bob. ASOSIY KONSTRUKSION MATERIALLAR VA ULARNI TANLASH

Neft va gazni kayta ishlash sanoatining qurilmalarini loyihalash jarayonida paydo bo'ladigan qurilmani tarkibiy qismlari uchun loyiq va mos materiallarni tanlash eng asosiy va o'ta mas'uliyatli masalalardan biridir.

Materiallarni tanlashda ularning quyidagi asosiy xususiyatlarni hisobga olinishi kerak:

- mustahkamligi;
- issiqlikka bardoshliligi;
- emirilishga qarshi kimyoviy chidamliligi;
- fizik xossalari;
- texnologik karakteristikalar, tarkibi va tuzilishi;
- narxi va uni ishlab chiqarish mumkinligi.

Materialning xossalari qo'llanilish sohasiga, ya'ni undagi muhitlarga chambarchas va kattik bo'liqdir. Muhitning temperaturasi o'zgarishi bilan materialning xamma mexanik xossalari -korroziyaga chidamliligi, qayta ishlanishga moyilligi - keskin o'zgaradi. Shuning uchun materialni tanlashda korroziyaga chidamliligiga alohida e'tibor berishi kerak, chunki bu ko'rsatkichga uning uzoq muddat davomida ishlatilishi uzviy bo'liqdir. Undan tashqari, korroziya natijasida emirilgan material olinayotgan mahsulot sifatini pasaytiradi, rangini yomonlashtiradi. Yana shuni nazarda tutish kerakki, qurilmaning materiali qo'shimcha reakstiyalar uchun katalizator ham bo'lib qolishi mumkin.

Kimyoviy chidamliligi jihatdan materialning yarokligini baxolash mezonlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Materialning korrozion chidamlilik shkalasi

Chidamlilik guruhi	Korrozion Chidamlilik balli	Korroziya tezligi, mm/yil
Juda chidamli	1	< 0,001
Uta chidamli	2 3	0,001 - 0,005 0,005 - 0,01
Chidamli	4 5	0,01 - 0,05 0,05 - 0,1
Chidamliligi past	6 7	0,1 - 0,5 0,5 - 1,0
Chidamliligi juda past	8 9	1,0 - 5,0 5,0 - 10
Chidamsiz	10	> 10

Odatda, asosiy talablarga mos va loyiq materiallar bir nechta bo'ladi. Bunday hollarda, qo'shimcha shart va fikrlar e'tiborga olinib, qurilma uchun material tanlanadi.

Shuning uchun, qurilmalarni yasash uchun asosiy materiallarni tanlashni loyihachi nuqtai nazaridan kurib chikamiz.

Konstruktion material sifatida temir (Re) texnik toza xolda umuman qo'llanilmaydi, chunki qimmat turadi va qayishqokliga yuqori. Ayrim hollarda uni yuqori bosimli qurilmalarda qistirma sifatida ham ishlatiladi.

Lekin, temirning uglerod bilan qotishmalari, ya'ni cho'yan va po'latlar kimyo va boshqa sanoat qurilmalarini tayerlashda juda ko'p ishlatiladi. Ma'lumki, kimyo sanoatida 85-90% qurilmalar cho'yan yoki po'latdan yasalgan.

ChO`YaN, Temirning uglerod va kremniy, fosfor, manganest va oltingugurt bilan ko'p komponentli qotishmasi kul rang cho'yan bo'ladi.

Cho'yan tarkibidagi uglerod miqdori 2,8-3,7% bo'ladi. Boshqa komponentlarning esa miqdori quyidagicha: S=3,0-3,6; Si=1,6-2,4%; Mn=0,5-1,0 %; R<0,8%; C<0,12%.

Cho'yanlarning fizik xossalari quyidagi ma'lumotlar bilan harakterlanadi:

- zichligi $\rho = 6600 - 7700 \text{ kg/m}^3$
- erish temperaturasi $T = 1050 - 1573 \text{ K}$;
- issiqlik o'tkazuvchanligi $\lambda = 25 - 59 \text{ Wt/m-K}$;
- solishtirma issiqlik sigimi $c_r = 0,5 - 4,5 \text{ kJ/kg-K}$;
- chizikli kengayish koeffitsienti $\alpha = 0,7 - 17,6 \cdot 10^{-6} \text{ 1/K}$.

Cho'yanlar narxi past va o'rtacha mexanik xossalarga ega bo'lgani uchun texnikaning turli sohalarida keng qo'llanishiga olib keldi.

PO`LAT. Bu materialsiz texnika hozirgi kundagi yuqori mavqeiga erishmagan bo'lardi. Bunga sabab, po'latning mustahkamligi, dinamik yuklamalarga bardoshligi, quyilish, bolgalanish, shtamplash va payvandlanish qobiliyatiga egaligi, stanoklarda qayta ishlanishga moyilligi, arzonligi va mo'lligidir.

Po'latlarda uglerod miqdori 1,5% gacha bo'lsa, konstruktion po'latlarda esa 0,7% dan ortmaydi.

Legirlovchi qo'shimchalar ta'siri. Muhim legirlovchi elementlarga quyidagilar kiradi: xrom, nikel, molibden, manganest, kremniy, titan, niobiy, volfram, vanadiy. Ayrim hollarda alyuminiy va mislar ham qo'shimcha sifatida po'latlarga qo'shiladi.

Kimyoviy tarkibiga ko'ra po'latlar uglerodli va legirlangan turlarga bo'linadi. Bu elementlar po'lat sifatini yaxshilaydi va maxsus xossali qiladi.

Legirlangan po'latning kimyoviy tarkibi uchun yagona shartli belgilar (harf va raqamlar) kabul qilingan.

Dastlabki ikki raqam uglerodning o'rtacha miqdorini (konstruktion po'lat uchun foizning yuzdan bir ulushi miqdorida, asbobsozlik va zanglamaydigan po'latlar uchun foizning undan bir ulushi miqdorida); harflar legirlovchi elementlarni (jadvalga karang); harflarning o'ng tomonidagi raqamlar esa elementlarning o'rtacha miqdorini ko'rsatadi.

Nomi	Shartli belgilari	Nomi	Shartli belgilari
Alyuminiy	Yu	Mis	d.
Bor	R	Molibden	M
Vannadiy	F	Nikel	N
Volfram	V	Niobiy	
Kobalt	k	Titan	t
Kremniy	s	Uglerod	u*
Marganest	g	Xrom	X

Po'lat komponentlarining shartli belgilari

U* - uglerodli asbobsozlik po'latlar markalarida. Masalan, X18N12M2T markali po'latda 18% xrom, 12% nikel, 2% molibden va 1% ga yaqin titan borligini ko'rsatadi.

YUQORI LEGIRLANGAN PO'LAT. Tarkibida 18-20% xrom va 8-10% nikel bo'lgan po'latlar yuqori legirlangan po'latlar deb yuritiladi. Ular korroziya va issiqlikka bardoshligi, mustahkamliligi uchun turli sanoatlarda keng qo'llanilmoqda.

Xozirgi kunda mamlakatimiz korxonalarida qurilmalarni yasashda quyidagi legirlangan po'latlar ishlatiladi: 1X18N9T, 1X18NPB X16N25M6, XN35VT, X22N26, 1X18N12M2T, 1X18N12MZT, X18N9T va boshqalar.

Yuqorida qayd etilgan po'latlarning fizik xossalari:

- zichligi $\rho = 7900 \text{ kg/m}^3$;
- erish temperaturasi $t_{er} = 1400 \text{ }^\circ\text{S}$;
- issiqlik o'tkazuvchanligi $\lambda_a = 14-18 \text{ Wt/m-K}$;
- issiqlik sirimi $S_r = 0,475 - 0,650 \text{ kJ/kg-K}$;
- chizikdi kengayish koeffitsienti $\alpha - 17,3-10^{-6} \text{ 1/K}$.

RANGLI METALLAR. Kimyo sanoatida rangli metallardan alyuminiy, mis, nikel, qo'rgoshin, titan qurilmalar yasashda qo'llaniladi. Rangli metallardan yasalgan qurilma devorlarining temperaturasi quyidagidan oshmasligi kerak:

Alyuminniy uchun - 200 °S

Mis va uning qotishmalari uchun - 250 °S

Nikel uchun - 500 °S

Qo'rgoshin uchun - 140 °S

Tantal uchun - 1200 °S.

ALYUMINIY - kumushsimon, ok, engil va bolgalanuvchan, korroziyaga bardoshli metallidir. Kimyoviy qurilmalarni yasashda AOO(99,7%), AO(99,7%), A1(99,5%), A2(99,0%), u hamda uning AD1, AD2 qotishmalari ishlatiladi.

Alyuminiyning yuqorida ko'rsatilgan markalari quyidagi fizik xossalarga ega:

- zichligi $\rho = 2700 \text{ kg/m}^3$;
- erish temperaturasi $t_{er} = 675 - 950 \text{ °S}$;
- issiqlik o'tkazuvchanligi $\lambda = 206 - 218 \text{ Wt/m-K}$;
- solishtirma issiqlik sigimi $s_r = 0,913 \text{ kJ/kgK}$;
- chiziqli kengayish koeffitsienti $\alpha = 2,4-10 \text{ } 1/\text{K}$.

Agressiv muhitlar ta'siriga alyuminiy juda chidamli, shu jumladan konstantastiyalangan azot, fosfor va sirka kislotalar, quruq xlor va vodorod xloridlar, oltingugurt buflariga ham uzoq muddat davomida bardosh bera oladi.

MIS - pushti-kizil rangli metall. Eng qimmat, konstruktsion materiallardan biri bo'lib, texnik toza xolda 5 xil markada ishlab chiqariladi. Kimyoviy qurilmalarda, asosan M2 (99,7%) va MZ (99,5%) markalari keng miqyosda ishlatiladi.

Misning xossalari quyidagi ma'lumotlar bilan harakterlanadi:

- zichligi $\rho = 8980 \text{ kg/m}^3$;
- erish temperaturasi $t_{er} = 1083 \text{ °S}$;
- issiqlik o'tkazuvchanligi $\lambda = 1596 - 2233 \text{ Wt/(m-K)}$;
- solishtirma issiqlik sigimi $s_r = 0,44 - 0,62 \text{ kJ/(kg-K)}$;
- chiziqli kengayish koeffitsienti $\alpha = 16,7 - 22,3 \cdot 10^{-6} \text{ } 1/\text{K}$.

Mis alyuminiyga o'xshab ximoya qiluvchi oksid qoplama hosil qilmaydi. Shuning uchun, kislota va tuzlarga nisbatan korrozion chidamlikka ega emas. Lekin, past va kriogen temperaturalarda mustahkamligi ortib boradi. Masalan, -196 °S da misning mustahkamlik chegarasi 20 dan 38 kg/mm² gacha ortadi.

QURGOSHIN - kukimtir, kul rang, bolgalanuvchan metall. Bir paytlar, bu material qurilmalar kurishda katta va muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bunga sabab, unda tuz va sulfat kislotaga nisbatan chidamli ximoya qoplamasining hosil bo'lishidir.

Lekin uning juda yumshoqligi, oson va past temperaturada erishi, katta zichligi va qimmatligi borgan sari kamroq qo'llanishi sabab bo'lmoqda.

Xozirgi kunda uning o'rniga zamonaviy temir qotishmalar ishlatilmokda. Sanoatda qo'rgoshinning 6 xili SV, SO, S1, S2, SZ, S4, S5 markalari keng qo'llaniladi. Ular tarkibidagi qo'rgoshin mikdori 99, 90-99, 95%. Qo'rgoshin quyidagi fizik xossalarga ega:

- zichligi $\rho = 10130 - 11350 \text{ kg/m}^3$;
- erish temperaturasi $T_f = 327^\circ\text{C}$;
- issiqlik o'tkazuvchanligi λ , - 14,9 - 34,9 Wt/(m-K);
- solishtirma issiqlik sigimi $s_r = 0,13 \text{ kJ/(kg-K)}$;
- chizikli kengayish koeffitsienti $\alpha - (12,3 - 14,9) \cdot 10^{-6} \text{ 1/K}$.

Qo'rgoshinni sanoatda qo'llashda shuni nazarda tutish kerakki, uning mustahkamligi juda pastdir.

NIKEL - kumushsimon, ok metall, qiyin eriydi va havoda o'zgarmaydi. Kimyo sanoatining qurilmalari uchun (NO markali 99,99%) nikel ishlatiladi. U juda mustahkam, issiqlik va korroziyaga chidamli va yaxshi texnologik xossali bo'lgani sababli mashinasozlik sohasi uchun kulay material hisoblanadi. Nikelning fizik xossalari quyidagicha:

- zichligi $\rho = 8830 - 8850 \text{ kg/m}^3$;
- erish temperaturasi $T_f = 1452^\circ\text{C}$;
- issiqlik o'tkazuvchanligi $\lambda = 55,0 - 56,0 \text{ Wt/(m-K)}$;
- solishtirma issiqlik sigimi $s_r = 0,575 - 0,586 \text{ kJ/(kg-K)}$;
- chizikli kengayish koeffitsienti $\alpha - (18,2 - 18,3) \cdot 10^{-6} \text{ 1/K}$.

TITAN - kumush rang, engil, qiyin eruvchan metall. Zichligi po'latnikidan 2 marta kam bo'lishiga qaramasdan. Uning mustahkamligi po'latnikiga tengdir. Titan azot, fosfor, xrom va sirka kislotalariga, nitrit, nitrat, xlorid va sulfidlarga nisbatan kimyoviy chidamli. 200°C temperaturada gazlarni yutish qobiliyatiga ega. Titan 40%-li N_2O_4 kislotasida kattik korroziyaga uchraydi. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, titandan yasalgan qurilma, po'latdan yasalganga nisbatan 8-10 barobar qimmatdir. Titan quyidagi fizik xossalarga ega:

- zichligi $\rho = 4320 - 4500 \text{ kg/m}^3$;
- erish temperaturasi $T_f = 1710 - 1750^\circ\text{C}$;
- issiqlik o'tkazuvchanligi $\lambda = 15,1 - 19,4 \text{ Wt/(m-K)}$;
- solishtirma issiqlik sigimi $s_r = 0,543 - 0,635 \text{ kJ/(kg-K)}$;
- chizikda kengayish koeffitsienti - $(8,0 - 8,4) \cdot 10^{-6} \text{ 1/K}$.

TANTAL - kul rang - oq metall. O'ta mustahkamligi va qiyin suyuluvchanligi bilan boshqa metallardan ajralib turadi. Undan tashqari, yuqori temperaturalarda, titanga nisbatan ko'prok gazlarni yutish qobiliyatiga ega. Tantal yaxshi

bolgalanuvchan, shtamplashga moyil, ichki ishqalanish koefitsienti juda katta bo'lgan metallidir. U sulfat, azot, fosfor, vodorod xlorid kislotalariga, hamda nitratlarga chidamli metallidir. Ammo, natriy va kaliy ishqorlari ta'siriga yaxshi bardosh berolmaydi.

Tantal juda ham qimmat metall va u taxminan xrom-nikelli po'latdan 100 marta qimmatdir. Albatta, uni faqat o'ta agressiv muhitli qurilmalarda, ya'ni boshqa metallar kimyoviy bardosh berolmagan hollarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Tantal quyidagi fizik xossalarga ega:

- zichligi $\rho = 16440 - 16600 \text{ kg/m}^3$;
- erish temperaturasi $t_{er} = 3000^\circ\text{S}$;
- issiqlik o'tkazuvchanligi $\lambda = 48,0 - 100 \text{ Vt/(m}\cdot\text{K)}$;
- solishtirma issiqlik sigimi $s_r = 0,136 - 0,2 \text{ kJ/kgK}$;
- chizikli kengayish koefitsienti $\alpha = (5 - 99) \cdot 10^{-6} \text{ 1/K}$.

LATUN - mis va ruxdan iborat qotishma. Ko'p komponentli latun tarkibiga mis va ruxdan tashqari, alyuminiy, kremniy, qo'rgoshin, nikel, temir, marganest va qalaylar kirishi mumkin.

Latun bosim ostida yaxshi ishlov beriladigan, ancha mustahkam, qayishqokligi (plastikligi) yuqori va korroziyaga chidamli qotishma. Undan tashqari, latunning elektr o'tkazuvchanligi juda yuqori. Temperatura pasayishi bilan latunning xossalari yaxshi tomonga o'zgaradi. Kimyo sanoatida qurilmalar yasashda L60, L62 va L68 markali latunlar keng qo'llaniladi.

Latunlar quyidagi fizik xossaparga ega:

- zichligi $\rho = 8500 \text{ kg/m}^3$;
- erish temperaturasi $t_{er} = 940^\circ\text{S}$;
- issiqlik o'tkazuvchanligi $\lambda = 105 - 116,3 \text{ Vt/(m}\cdot\text{K)}$;
- solishtirma issiqlik sigimi $s_r = 0,385 \text{ kJ/(kgK)}$;
- chizikli kengayish koefitsienti $\alpha = 20,0 \cdot 10^{-6} \text{ 1/K}$.

BRONZA - mis va qalaylardan iborat qotishma. Ushbu kimyoviy elementlardan tashqari, uning tarkibiga kremniy, alyuminiy, berilliy ham kirishi mumkin.

Bronza mustahkamligi, qayishqokligi, korroziyaga bardoshligi, antifrikstion xossalari bilan ajralib turadi.

Bu material ushbu fizik xossalari bilan xarakterlanadi:

- zichligi $\rho = 935 - 1140 \text{ kg/m}^3$;
- erish temperaturasi $t_{er} = 935 - 1140^\circ\text{S}$;
- issiqlik o'tkazuvchanligi $\lambda = 32,0 - 105 \text{ Vt/(m}\cdot\text{K)}$;
- solishtirma issiqlik sigimi $s_r = 0,385 \text{ kJ/(kgK)}$;
- chizikli kengayish koefitsienti $\alpha = (1,5 - 1,95) \cdot 10^{-6} \text{ 1/K}$.

PLASTMASSALAR - yuqori korrozion bardoshlikka va mustahkamlikka ega yangi konstruktion materialdir. Plastmassalarni ishlab chiqarish jarayonida mustahkamligini, kayishkokligini, rangini, yumshash temperaturasi, issiqlik o'tkazuvchanligini yaxshilash va arzonlashtirish maqsadida unga plastifikator, to'ldiruvchi, rang beruvchi moddalar kushiladi.

Xamma plastmassalar 2 guruhga bo'linadi:

1) termoplastlar; 2) reaktoplastlar.

Termoplastlar isitilganda yumshash, sovitilganda qotish xossasiga ega va bu jarayonni bir necha marta qaytarsa bo'ladi.

Reaktoplastlar esa, isitilganda eriydi va ma'lum bir temperaturagacha qizdirilsa - qotib qoladi va qayta yumshamaydi, erimaydi.

<i>Po'lat guruhi</i>	<i>Marka</i>	<i>Ruxsat etiladigan ishchi parametrlar</i>		<i>Taxminiy qo'llanish sohasi</i>
		<i>Bosim MN/m²</i>	<i>Devorninig temperatu rasi, ° S</i>	
1	2	3	4	5
Oddiy Sifatli uglerodli po'lat 172	St.Z	5	-30 dan + 400 gacha	Obechayka, qopqok, flanest va boshqa detallar uchun
			- 40 dan	tur pardasi" va boshqa detallar uchun
			+ 425 gacha	Qurilma, idish, isitkich obechaykalari, patrubkalari va boshqa detallari uchun
Oddiy sifatli uglerodli po'lat	St.5	5	- 30 dan + 425 gacha	Flanest, truba to'r pardasi va boshqa detallar uchun
				Bolt, shpilka va payvandlanmaydigan detallar uchun

	0,8 kp	1,6	- 10 dan + 350 gacha	Emashtanishi kerak bo'lgan obechayka, qopqoq va boshqa detallar uchun
	10		- 40 dan + 450 gacha	
	20	20	- 40 dan + 475 gacha	Obechayka, qopqoq, flanest, mufta va boshqa detallar uchun
Sifatli konstrukstiyali uglerodli po'lat	25; 30; 35; 40; 45;	1 0*20	- 30 dan + 450 gacha	Gayka, bolt va shpilkalar Uchun
Kam legirlangan po'lat	16 GS	25	- 70 dan + 475 gacha	Neytral va agressivligi past muhitlarda ishlatiladigan kurilmalarning obechayka, kopqoq, flanest va boshqa detallar uchun
	09 G2S			
Legirlangan po'lat	12 MX	25	- 40 dan + 540 gacha	Agressivligi past va o'rta muhitlarda, hamda devoridagi kuchlanish yuqori bo'lgan muhitlarda ishlatiladigan, payvandlangan, neft, kimyo sanoati qurilmalarining obschayka, kopkok, flanest va boshqa detallar uchun
Yuqori legirlangan po'lat	OX13		- 40 dan + 540 gacha	Tarkibida oltingugurt bor, issiq muhitli, payvandlangan, neft, kimyo sanoati, rektifikastion kolonnaning tarelkalari va kam kuchlanishi detallari uchun

	1X13	1,6	Tarkibida oltingugurt bor va boshqa agressiv, issiq muhitli, neft kimyosi qurilmalarining obechayka, kopkok, flanest, bolt, gayka va boshqa detallari uchun
	2X13		1X13 material qo'llaniladigan
			Soha uchun, paivandlanmaidigan val, o'q, bolt, gayka va boshqa detallar uchun
	1X13 L 2X13 L		1X13 material qo'llaniladigan soha uchun, kuyma, neft kimyo, qurilmalarining kobigi, kopkogi, flanest va boshqa detallari uchun
Korroziya, issiqlik-ka bardosh va issiqlikka chidamli yuqori legirlangan po'lat	X17		Neftni qayta ishlash, azot kislotasini ishlab chiqarish sohasida uzlukli, yuklama ta'siri yo'q, mas'uliyati kam kurilmalarning obechayka, dnishe, truba paketi, zmeevik va boshqa detallar uchun. Ushbu material X18 N10T po'latning o'rnini bosuvchi material sifatida tavsiya etiladi.

X25TL	- 20 dan + 700 gacha	X25T po'lat qo'llaniladigan sohadagi kuyma qurilmalarning kobigi, kopkogi, flanest va boshqa detallari uchun.
X28	- 20 dan + 600 gacha	Suyuk va gazli o'rtacha agressiv muhitda yuqori temperaturada o'zgarmas va o'zgaruvchan yuklama tushmaydigan, mas'uliyati kam kimyoviy qurilmalar uchun
X28AN	- 20 dan + 400 gacha	Kimyo sanoatida, o'rtacha agres-siv muhitlarda ishlatiladigan, payvandlangan kurilmalarning obechaykava boshqa detallari uchun.
X28N4	- 20 dan + 700 gacha	Gazli korroziya sharoitida o'rtacha agressiv muhitlarda ishlaydigan, mas'uliyati kam kimyoviy qurilmalarning obechayka, dnishe va boshqa detallari uchun.
1X17N2	- 20 dan + 600 gacha	Past va o'rtacha agressiv muhitlarda ishlaydigan kimyoviy kurilmalarning obechayka, dninje va boshqa detallari uchun.

	1X21N5T OX21N5T	6,4	- 100 dan + 600 gacha	Urtacha agressiv muhitlar da ishlaydigan, payvandlangan kimyoviy qurilmalardagi X18N10T po'latning o'rniga qo'llash uchun tavsiya etiladi.
	J21N6M2			Yuqori agressiv muhitlarda
				ishlaydigan paivandlangan kimyoviy qurilmalardagi X17N13M2T o'rniga qo'llash uchun tavsiya etiladi.
	EX17N5G9 AB	1,6	-196 dan +600 gacha	Yuqori agressiv muhitlarda ishlaydigan, OX17T bardosh berolmaydigan, payvandlangan qurilmalarda X18N10T o'rniga qo'llash uchun tavsiya etiladi.
				Chuqur sovitish usulida gazlarni ajratish va kimyo sanoatida ishlatiladigan payvandlangan idish va qurilmalarning obechayka, dnuqe va boshqa detalari uchun.
	K14P4NZ T	4	-196 dan +500 gacha	Chukur sovitish usulida gazlarni ajratish va kimyo sanoatida payvandlangan qurilmalardagi X18N10T po'latning o'rniga qo'llash uchun tavsiya etiladi.

X18NYuT	Cheklan magan	-254 dan +600 gacha	Yuqori va o'rtacha agres- siv muhitlarda, mas'uliyatli payvandlangan kimyoviy qurilma- larning obechayka, dnuqe, flan- est, truba tur pardalari, bolt, gayka, shpilka, shtuster patrub- kalari va boshqa detallari uchun
X18N9TL			Yuqori va o'rtacha agressiv muhit- larda ishlaydigan, kimyoviy kuyma qurilmalarning kobigi, kopkogi, flanest va boshqa detallari uchun
K17N13M2T	Cheklan magan	-196 dan +700 gacha	Yuqori va o'ta agressiv muhit- larda ishlaydigan, X18NYuT, OX18NYuT va OX18N12B po'latlar chidamsiz bo'lgan hollarda, pay- vandlangan kimyoviy qurilma- larning obechayka, dnu]de, truba tur pardalari, truba paketi va bosh- qa detallari uchun.
ZX23N28 M2T	0,07		Ftorli birikmalar bor issiq fosfor kislotasi va past konsten- trastiyali 60°S li yuqori agressiv muhitda ishlaydigan pay- vandlangan kimyoviy kurilmalar uchun.

				Kurilmalarning obechayka, dnuqe va boshqa detallari uchun.
	ZX23N28 MZ DZT			Sulfat kislota, tarkibida ftor- li birikmalar bor, +80°S dan kam bo'lgan temperaturali fos- for kislotali (32-50% R ₂ O ₅) va tem- peraturasi +70 °S dan past 25% li kremniy-ftor-vodorodli kislo- ta muhitlarida ishlaydigan pay- vand langan kimyoviy qurilmalar obechayka, dnuqe va boshqa detal- lari uchun.
Ikki kavatli (bimetal) po'latlar	t.Z+OX 3	5	-40 dan +425 gacha	Tarkibida oltingugurt bor issiq muhitlarda ishlaydigan pay- vandlangan, neft kimyosi qurilma- laridagi obechayka, dnuqe, pat- rubka va boshqa detallari uchun.
	20K+OX13	Cheklan magan	-40 dan +475 gacha	
	2MX+OX 13		-40 dan +540 gacha	
	t.Z+X18 nyut	5	-30 dan +400 gacha	Urtacha va o'ta agressiv muhit- larda ishlaydigan, payvand- langan kimyoviy qurilmalarning obechayka, dnuqe, patrubka va boshqa detailari uchun.
	YuK+X18N 10T	Cheklan magan	-40 dan +400 gacha	
	YuK+X17N 13M2T			

ShISHA PLASTIKLAR - poliefir smolalar va shisha tolalaridan tashkil qilingan sun'iy material. Undan yirik, o'lchamlari katta distillyastion kolonnalar, skrubberlar, omborlar, diametri 4,5 m, balandligi 6 m li idishlar yasash mumkin.

Shisha plastiklar 20°S yoki undan ozgina yuqori temperaturada qizdirilsa, polimerizastiya bo'ladi.

FTOROPLAST-4. Qayishkokligi yuqori, elektr tokni o'tkazmaydigan, issiqlikka chidamli, -200-+500°S temperaturada ishlatilishi mumkin. Kimyoviy muhitlarga o'ta chidamliligi, uning yaxshi xossalaridan biridir. Bu ko'rsatkich buyicha plastmassalar, Ai, R1, emal, maxsus qotishma va boshqa materiallardan ustundir.

Ftoroplast-4 dan har xil qalinlikdagi listlar, trubalar, yupqa devorli stilindrik idishlar, membranalar, silfonlar va boshqa turli mahsulotlar tayerlash mumkin.

Ayniksa, qurilmalar uchun qistirma sifatida foydalanishda unga teng keladigan material yo'kdir.

To'ldiruvchisiz plastmassalarning chidamliligi quyidagi xossalar bilan xarakterlanadi:

1. Penoplastlar past konstentrastiyali kislota, eritmalarga nisbatan chidamli. Ammo, N_2O_4 , konstentrlangan ishqorlarga bardosh bera olmaydi;

2. Shisha plastiklar benzin, metanol, butanol, etil astetat, 10% li azot, fosfor va vodorod xlorid kislotalarga nisbatan chidamli;

3. Ftoroplastlar xamma kislota va ishqorlarga nisbatan past va yuqori temperaturalarga chidamli.

Ammo, natriy yoki kaliy, ftor va uchlamchi ftor xloridlar ta'sirida emiriladi.

Plastmassalarni metallar bilan takkoslash shuni ko'rsatadiki, plastmassalar bir necha afzalliklarga ega:

a) solishtirma ogirligi kichik; b) solishtirma mustahkamligi yuqori; v) texnologik xossalari yaxshi; g) korrozion bardoshliligi yuqori.

Past, o'rta va yuqori bosimli kimyoviy qurilmalar uchun tavsiya etiladigan po'latlar

Qurilmalar va truba quvurlarining qo'zgalmas, yigma birikmalarini zichlash uchun tavsiya etiladigan metalmas qistirma materiallar.

Qistirma Materilining nomi	Zichligi $r, kg/m^3$	Sortament, mm	
		Qalinligi	List o'lchamlari
Karton, suv o'tkazmaydigan	900+1000	1; 1,5; 2; 2,5; 3	750x1 500; 950x1 500; 1000x1000; 1000x1500
Karton,	800+850	0,5; 0,8; 1; 1,5	750x1 500; 950x1 500;

A markali			1000x1000; 1000x1500
Karton, asbest- li	1,0+1,3	2; 2,5; 3; 3,5; 4; 5; 6	900x900; 900x1000; 1000x1000
Paronit	1500+2000	1;1,5;2;3;4	500x500; 600x600; 700x1200; 1000x1200; 1000x1500; 1200x1500; 1200x1700
Paronit UV-10	-	0,4+2,5	550x550
Rezina, kis- lota-ishqor- bardosh Rezina, moy-benzin bardosh	-	0,5-5-10	eni 200-1750 uzunligi 500+10000
Plastikat polixlor -vinilli	1300-1500	1-5	eni >600 uzunligi>1000
Ftoro- plast-4	2100-2300	1,5; 2; 3; 4; 5	195x195; 240x240
Tekstolit MA Fibra FT	1300-1600 1100	0,5-5-3,5 0,6-2,5	250x250 eni 550x700; 1100+1400 uzunligi 850x1500; 1700-2300
Charm texnik	1100-1500	2,5-5	-

Jadvalda keltirilgandan tashqari, quyidagi materiallar ham qistirma sifatida ishlatiladi: mis (kuydirilgan), alyuminiy (yumshoq), zanglamaydigan po'lat, nikel, qo'rgoshin.

2-bob. GIDRAVLİK HISOBLAR

2.1. TRUBALARNING GIDRAVLİK QARSHILIKLARINI HISOBLASH

Trubalarning gidravlik qarshiliklarini aniqlashdan maqsad, suyuqlik va gazlarni uzatish uchun mo'ljallangan nasos, ventilyator, gazoduvka kabi uskunalarning energiya sarfini aniqlashdir.

Ma'lumki, ishqalanish va mahalliy qarshiliklar mavjuddir. Ularning paydo bo'lishiga suyuqlik oqimining yo'nalishi va tezligining o'zgarishi sababchidir.

Bosimning ($\Delta R_{yo'q}$) yoki naporning ($h_{yo'q}$) yo'qotilish ishqalanish va mahalliy qarshiliklarni engishga sarf bo'ladi va ular quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

$$\Delta P_{iyk} = \left(\lambda \frac{l}{d} + \sum \xi \right) \frac{\rho w^2}{2} \quad (2.1)$$

$$h_{iyk} = \left(\lambda \frac{l}{d} + \sum \xi \right) \frac{w^2}{2g} \quad (2.2)$$

bu erda λ - ishqalanish koeffitsienti; l va d - trubaning uzunligi va diametri, m; $\sum \xi$ - mahalliy qarshilik koeffitsientlarining yigindisi; ρ - gaz yoki suyuqlikning zichligi, kg/m³.

Trubaning ekvivalent diametri ushbu formuladan topiladi:

$$d_s = \frac{4S}{\Pi} \quad (2.3)$$

bu erda S - oqim ko'ndalang kesimining yuzasi, m²; P - ho'llangan perimetr.

Ishqalanish koeffitsienti λ ni hisoblash formulasi suyuqlikning oqish rejimi va trubaning radir-budurligiga bog'likdir.

Laminar rejimda,

$$\lambda = \frac{A}{Re} \quad (2.4.)$$

bu erda $Re = wdp / \mu$ - Reynolds soni; A - trubaning ko'ndalang kesimiga bog'liq koeffitsient. Quyida ba'zi ko'ndalang kesimlar uchun ekvivalent diametr va A koeffitsientlarining son qiymatlari 2-1 jadvalda keltirilgan:

2-1 jadval

Ko'ndalang kesim shakli	D	A
d - diametrli aylana	d	64
a - tomonli kvadrat	a	57
a - tomonli teng yonli uchburchak	$0,58a$	53
a - kenglikka ega xalqa	$2a$	96
balandligi a , eni b bo'lgan to'rti to'rtburchak		
$a/b=0$	$2a$	96

a/b=0,1	1,81a	85
a/b=0,25	1,6a	73
a/b=0,5	1,3a	62
Ellips (a - kichik yarim o'q, b - katta yarim o'q):		
a/b=0,1	1,55a	78
a/b=0,3	1,4a	73
a/b=0,5	1,3a	68

Turbulent rejimda esa 3 ta zona bor va ular uchun ishqalanish koeffitsienti λ quyidagi formulalar orqali hisoblanadi: Tekis ishqalanish zonasi uchun ($2320 < Re < 10/e$)

$$\lambda = \frac{0,316}{\sqrt[4]{Re}} \quad (2.5)$$

aralash ishqalanish zonasi uchun ($10/e < Re < 560/e$)

$$\lambda = 0,11 \left(e + \frac{68}{Re} \right)^{0,25} \quad (2.6)$$

Re ($Re > 560/e$) soniga nisbatan avtomodel zona uchun

$$\lambda = 11e^{0,25} \quad (2.7)$$

2-2 jadval

Trubalar	mm
Yangi pulat	0,06-0,1
Ozgina korroziyaga uchragan po'lat truba	0,1-0,2
Ifloslangan, eski truba	0,5-2
Yangi cho'yan, keramik trubalar	0,35-1
Ishlatilgan, cho'yan truba	1,4
Tekis alyuminiy trubalar	0,015-0,06
Latun, mis, qo'rqoshin va shisha trubalar	0,0015-0,01
To'yingan buf uchun	0,2
Buf uchun, uzlukli ishlaydigan trubalar	0,5
<u>Kondensastiya uchun</u> , uzlukli ishlaydigan trubalar	1,0

(2.5) - (2.7) formulalarda e - trubaning nisbiy fadir-budurligi; A - trubaning absolyut fadir-budurligi (truba yuzasidagi do'ngliklarning o'rtacha balandligi). 2-2 jadvalda ba'zi bir trubalarning absolyut fadir-budurliklarining tahminiy son qiymatlari keltirilgan.

Mahalliy qarshiliklar koeffitsientlarining son qiymatlari suyuqlikning oqish rejimi va mahalliy qarshilikning turiga bog'liqdir.

2.2. TRUBALARNING OPTIMAL DIAMETRLARINI HISOBLASH

Dumaloq ko'ndalang kesimli trubalarning ichki diametri quyidagi formula yordamida hisoblanadi [1]:

$$d = \sqrt{\frac{4V}{\pi w}} \quad (2.8)$$

bu erda V - hajmiy sarf, m^3/s ; w - tezlik, m/s .

Odatda, uzatilayotgan suyuqlikning sarfi ma'lum bo'ladi (yoki berilgan bo'ladi). Demak, trubaning diametrini aniqlash uchun faqat bitta parametрни topish kerak, ya'ni tezligi w ni. Oqimning tezligi qancha katta bo'lsa, shunchalik trubaning zarur diametri kichik bo'ladi. Bu hol esa truba quvuri narxining arzonlashishiga, uni ta'mirlash va montaji uchun sarflar kamayishiga olib keladi.

Ammo, oqimning tezligi ortishi bilan truba quvurida naporning yo'qotilishi o'sib ketadi. Bu esa, suyuqlikni uzatish uchun zarur bo'lgan bosimlar farqining ko'payishiga sababchi bo'ladi, ya'ni energetik sarflar ortadi.

Suyuqlik yoki gazni uzatish paytida jami sarflar minimal bo'lgan trubaning optimal diametrini texnik-iqtisodiy hisoblar orqali aniqlash kerak. Amaliyotda esa optimal diametrli trubadagi tezliklarga yaqin tezliklar orqali topiladi.

2.3. NASOS VA VENTILYATORLARNI HISOBLASH

Neftni qayta ishlash texnologiyasida ishlatiladigan nasoslarning asosiy turlari: markazdan qochma, porshenli va propellerli (o'qli) nasoslardir.

Bu tipdagi qurilmalarni loyihalashda belgilangan sarfda suyuqlikni nasos yordamida uzatish uchun zarur napor va quvvatni aniqlash masalasini echish kerak. Ushbu, ya'ni napor va quvvat topilgandan so'ng aniq bir nasos tanlanadi [1,5,].

Suyuqlikni uzatish uchun sarflanayotgan foydali quvvat quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$N_F = \rho \cdot g \cdot H \cdot Q \quad (2.9)$$

bu erda Q - suyuqlik sarfi, m^3/s ; N - nasos napori, m. Nasosning o'qidagi quvvat quyidagi tenglama bilan topiladi:

$$N_e = N_f / \eta_n = p \dot{V} / \eta_n \quad (2.10)$$

Nasosning napori esa ushbu formula yordamida hisoblanadi:

$$H = p_2 - p_1 / \rho g + H_G + h_{yuk} \quad (2.11)$$

bu erda r_2, p_1 - suyuqlikning nasosga kirishidagi va chiqishidagi bosimi, Pa; N_g - suyuqlikni geometrik ko'tarilish balandligi, m; h so'rish va haydash trubalaridagi yo'qotilishlarning yirindisi, m.

Dvigatel iste'mol qiladigan quvvat nasos o'qidagi quvvatdan ortiqroq bo'ladi, chunki quvvatning bir qismi elektr dvigatelning o'qida va elektr dvigateldan mexanik energiya nasosga berilayotganda sarf bo'ladi, ya'ni

$$N_{dv} = N_e / \eta_{dv} \eta_{uz} = N_f / \eta_n \eta_{dv} \eta_{uz}$$

Agarda dvigatelning f.i.k. noma'lum bo'lsa, nominal quvvatiga qarab f.i.k. ni tanlasa bo'ladi:

2.3- jadval

N_{dv}, kVt	0,4- 1	1 - 3	3-10	10-30	30 - 100	100 - 200
η_{dv}	0,7-0,78	0,78-- 0,83	0,83- 0,87	0,87-0,9	0,9-0,92	0,92-0,94

Agarda $N > 200 kVt$ bulsa, dvigatel f.i.k. 0,94 ga teng bo'ladi.

Texnologik sxemaga nasosni o'rnatish paytida shuni nazarda tutish kerakki, surish balandligi quyidagi formuladan olingan son qiymatidan katta bo'lishi mumkin emas:

$$H_c = \frac{p_1}{\rho g} - \left(\frac{p}{\rho g} + w_c^2 / 2g + h_{cyuk} + h_{zax} \right) \quad (2.13)$$

bu erda r_1 - ishchi temperaturada uzatilayotgan suyuqlikning to'yingan buri bosimi, Pa; w - surish trubasidagi suyuqlikning tezligi, m/s; h -so'rish trubasida naporning yo'qotilishi, m; h_{zax} bartaraf qilish uchun napor zahirasi, m. Markazdan qochma nasoslar uchun

$$h_{zax} = 0.3(Q n^2)^{2/3} \quad (2.14)$$

bu erda p -valning aylanish chastotasi.

Porshenli nasoslar uchun

$$h = 1,2 l/g f_1/f_2 u^2/r \quad (2.15)$$

bu erda l - so'rish trubasidagi suyuqlikning balandligi, m; f_1 va f_2 - porshen va trubalarning ko'ndalang kesim yuzasi, m^2 ; u - aylanishning doira bo'ylab tezligi, s^{-1} ; r - krivoship radiusi, m.

Ventilyatorlar. Gazlarni uzatish paytida bosimni 1,15 gacha ko'taradigan mashinalarga ventilyatorlar deyiladi. Sanoatda eng keng tarqalgan ventilyatorlarning turi - markazdan qochma va propellerli (o'qli). Hosil qilayotgan bosimiga qarab, ventilyatorlar 3 guruhga bo'linadi:

- past bosimli - 981 Pa gacha;
- o'rta bosimli - 981-2943 Pa;
- yuqori bosimli - 2943-11772 Pa.

Ventilyatorlar yordamida gazlar uzatilganda, gazning termodinamik o'zgarishi juda kichik bo'ladi. Shuning uchun ushbu o'zgarishni hisobga olmasa ham bo'ladi va ularga siqilmaydigan muhitlar uchun mashinalar nazariyasini qo'llasa o'rinnidir.

Ventilyator iste'mol qilayotgan quvvatni aniqlash uchun (2.9), (2.10) va (2.12) formulalardan foydalanish mumkin.

Ventilyatorning nabori esa ushbu tenglamadan topiladi:

$$H = p_2 - p_1 / \rho g + h_{yo'q}$$

bu erda r_1 - gaz so'rib olinayotgan qurilmadagi bosim, Pa; r_2 - gaz haydalayotgan qurilmadagi bosim, Pa; h_{yuk} - so'rish va haydash yo'llarida yo'qotilgan naporlarning yifindisi.

Markazdan qochma ventilyator f.i.k. $\eta_B = 0,6 - 0,9$ propellerli (o'kli) ventilyatorniki esa $\eta_v = 0,7 - 0,9$. Agarda dvigatel bilan ventilyator o'qlari bevosita birlashtirilgan bo'lsa, $\eta = 1,0$.

Nasosni hisoblash namunasi

Ortiqcha bosimi 0,1 MPa da ishlaydigan qurilmaga ochiq idishdan 20°S li suvni uzatish uchun qanday nasos urnatilishi kerak. Suvning sarfi $1,2 \cdot 10^2 m^3/s$. Suvni 15 m balandlikka ko'tarish zarur. So'rish trubasining uzunligi 10 m, haydash yo'liniki esa 40 m. Haydash yo'lida 2 ta 120° li burilish radiusi trubaning 6 ta diametriga teng 10 ta 90° li tirsak va 2 ta normal ventillar bor. So'rish yo'lida esa 2 ta ventil va burilish radiusi trubaning 6 ta diametriga teng 4 ta 90° li tirsaklar mavjuddir.

Suv idishi sathidan 4 m balandlikda nasosni o'rnatish mumkinligini aniqlash kerak.

Truba quvurini tanlash

So'rish va haydash truba quvurlari uchun suvning oqish tezligini bir xil, ya'ni 2 m/s deb qabul qilamiz. Unda, truba diametri (2.8) formulaga binoan quyidagiga teng bo'ladi.

$$d = \sqrt{4 \times 1,2 \times 10^{-2} / 3,14 \times 2} = 0,088 \text{ m}$$

2-9 jadvaldan tashqi diametri 95 mm, devorining qalinligi 4 mm li po'lat trubani tanlaymiz. Ushbu trubaning ichki diametri $d = 87 \text{ mm}$ bo'ladi. Trubadagi suvning haqiqiy tezligi:

$$w = 4 \times Q / \pi \times d^2 = 4 \times 1,2 \times 10^{-2} / 3,14 \times 0,087^2 = 2,02 \text{ m/s}$$

Trubaning emirilishini hisobga olmasa bo'ladigan darajada kam deb qabul qilamiz.

Ishqalanish va mahalliy qarshiliklar tufayli naporning yo'qotilishi

$$Re = w d \rho / \mu = 2,02 \times 0,087 \times 998 / 1,005 \times 10^{-3} = 174500$$

Ya'ni, suvning oqishi turbulent rejimga to'g'ri keladi. Trubaning absolyut radirbudurligini $\Delta = 2 \times 10^{-4}$ deb qabul qilamiz. Unda

$$e = \Delta / d = 2 \times 10^{-4} / 0,087 = 0,0023$$

$$1/e = 435; \quad 560/e = 244000; \quad 10/e = 4350;$$

$$435 < Re < 244000$$

Ko'rinib turibdiki, trubaning ichida aralash ishqalanish mavjuddir. Shuning uchun λ koefitsientni (2.6) formula yordamida hisoblanadi:

$$\lambda = 0,11(0,0023 + 68/174500)^{0,25} = 0,025$$

Mahalliy qarshilik koefitsientlar yirindisini topamiz: Surish yo'li uchun:

1) trubaga kirish (o'tkir qirrali hol uchun): $\xi_1 = 0,5$

2) ventillar $d = 0,076$ uchun $\xi = 0,6$
 $d = 0,10$ uchun $\xi = 0,5$

interpolyatsiya qilish natijasida, $d = 0,087$ uchun $\xi = 0,56$; olingan natijani tuzatish koefitsienti $k = 0,925$ ko'paytirib $\xi_2 = 0,52$ ekanligini aniqlaymiz.

3) tirsaklar; koefitsienti $A = 1$; koefitsient $V = 0,09$; $\xi = 0,09$.

So'rish yo'lidagi mahalliy qarshilik koefitsientlarining yirindisini topamiz;

$$\Sigma \xi = \xi_1 + 2\xi_2 + 4\xi_3 = 0,5 + 2 \times 0,52 + 4 \times 0,09 = 1,9$$

Co'rish yo'lida naporning yo'qotilishi (2.2) formuladan hisoblab aniqlanadi;

$$h_{cyo'q} = (0,025 \times 10 / 0,087 + 1,9) \times 2,02^2 / 2 \times 981 = 0,99$$

Haydash yo'li uchun:

1) 120° li tirsaklar: $A = 1,17$; $V = 0,09$; $\xi_1 = 0,105$

2) 90° li tirsaklar $\xi_2 = 0,09$

3) normal ventillar; $d = 0,08 \text{ m}$ uchun $\xi_3 = 4,0$

$$\begin{array}{ll} d = 0,1\text{m} & \text{uchun} & \xi_3 = 4,1 \\ d = 0,087\text{m} & \text{uchun} & \xi_3 = 4,04 \end{array}$$

4) trubadan chiqish:

$$\xi_4 = 1$$

xaydash yo'lida mahalliy qarshilik koeffitsientlarining yirindisini topamiz:

$$\sum \xi = 2\xi_1 + 10\xi_2 + 2\xi_3 + \xi_4 = 2 \cdot 0,105 + 10 \cdot 0,09 + 2 \cdot 4,04 + 1 = 10,2$$

Haydash yo'lida bosimning yo'qotilishi (2.2) formula orqali hisoblanadi:

$$h_{x.uyk} = \left(0,025 \cdot \frac{40}{0,087} + 10,2 \right) \cdot \frac{2,02^2}{2 \cdot 9,81} = 4,51\text{m}$$

Umumiy naporning yo'qotilishi:

$$h_{ym} = h_{c.uyk} + h_{x.uyk} = 0,99 + 4,51 = 5,5\text{m}$$

Nasosni tanlash

(2.11) formula yordamida kerakli napor topiladi:

$$H = \frac{0,1 \cdot 10^6}{(998 \cdot 9,81) + 15 + 5,5} = 30,7\text{m.cy6.ycm}$$

1) Berilgan ish unumdorliqsta bunday naporni bir bosqichli markazdan qochma nasos bera oladi (ilovadagi 6 - jadval).

2) Ushbu nasosning foydali quvvatini (2.9) formula orqali hisoblab topish mumkin:

$$N_{\phi} = 998 \cdot 9,81 \cdot 0,012 \cdot 30,7 = 3606\text{Bm} = 3,61\text{kBm}$$

$\eta_{uz} = 1$ va $\eta_u = 0,6$ deb qabul qilib, (2.12) formuladan dvigatel o'qidagi quvvatni aniqlaymiz:

$$N = \frac{3,61}{0,6 \cdot 1} = 6,02\text{ kVt}$$

Ilovadagi 6 - jadvaldan ushbu ish unumdorlik va naporga mos, hamda eng yaqini X45/31 markali markazdan qochma nasos to'g'ri keladi. Bu nasosning optimal ish rejimida $Q = 1,25 \cdot 10^2 \text{ m}^3/\text{s}$, $N = 31 \text{ m}$, $\eta_n = 0,6$. Nasosga A02-52-2 zlekr dvigateli o'rnatilgan bo'lib uning nominal quvvati $N = 13 \text{ kVt}$, $\eta_{dv} = 0,89$. Dvigatel o'qining aylanish chastotasi $n = 48,3 \text{ s}^{-1}$.

Kavitastiya uchun naporning zahirasi (2.14) formuladan topiladi:

$$h_{zax} = 0,3 \cdot (0,012 \cdot 48,3)^{2/3} = 2,77 \text{ m}$$

To'yingan suv burining bosimi [4,5] dan aniqlanadi va u 20°S da $r_t = 2,35 \cdot 10^3 \text{ Pa}$ ga tengdir. Atmosfera bosimi $r_1 = 10^5 \text{ Pa}$ va so'rish patrubkasining diametri truba quvurining diametriga teng deb qabul qilamiz. Unda, (2.1) formula orqali

$$H_c \leq \frac{10^5}{998 \cdot 9,81} - \left(\frac{2,35 \cdot 10^3}{998 \cdot 9,81} + \frac{2,02}{2 \cdot 9,81} + 0,99 + 2,77 \right) = 6,0\text{m}$$

ekanligini topamiz. Shunday qilib, nasosni idishdagi suyuqlik satxidan 4 m balandlikda o'rnatish mumkin.

Ventilyatorni hisoblash namunasi

Havoning temperaturasi 20°S , sarfi esa - $0,4 \text{ m}^3/\text{s}$. Havo adsorberning pastki qismiga yuborilmoqda. Adsorbent qatlamining ostidagi va ustidagi havoning bosimi atmosfera bosimiga tengdir. Sorbent zarrachalarining zichligi $r_k - 800 \text{ kg/m}^3$, o'rtacha o'lchami $d = 0,0020 \text{ m}$ va shakl faktori $F = 0,8$. Qo'zgalmas sorbent qatlamining balandligi $N = 0,65 \text{ m}$, rovakligi $\varepsilon = 0,4 \text{ m}^3/\text{m}^3$. Adsorberning ichki diametri $V = 1,34 \text{ m}$. Havo so'rib olish joyidan adsorbergacha bo'lgan joyidan truba quvurining uzunligi $l = 20 \text{ m}$. Truba quvurida 90° li 4 ta tirsaklar va 1 ta zadviyka o'rnatilgan.

Adsorber orqali havoni uzatish uchun ventilyator tanlansin.

Qatlam holatini aniqlaymiz.

Qurilmadagi havoning fiktiv tezligani topamiz:

$$W_o = \frac{4 \cdot Q}{\pi \cdot D^2} = \frac{4 \cdot 0,4}{3,14 \cdot 1,34^2} = 0,284 \text{ m/c}$$

Arximed kriteriysini quyidagi formuladan hisoblaymiz:

$$Ar = \frac{g \cdot d^2}{\mu^2} \cdot (p_k - p) \cdot p = \frac{9,81 \cdot 0,0020^3}{(1,85 \cdot 10^{-5})^2}$$

Re_{mk} ni prof. Todes O.M. formulasi orqali isoblab topish mumkin [1]:

$$Re_{mk} = \frac{Ar}{1400 + 5,22\sqrt{Ar}} = \frac{2,38 \cdot 10^5}{1400 + 5,22\sqrt{2,38 \cdot 10^5}} = 60,3$$

Mavhum qaynash tezligini esa ushbu formuladan aniklanadi:

$$W_{mk} = \frac{Re_{mk} \cdot \mu}{d \cdot p} = \frac{60,3 \cdot 1,85 \cdot 10^{-5}}{0,00205 \cdot 1,206} = 0,451 \text{ m/c}$$

Shunday qilib, $W_o < W_{mk}$ ($0,284 \text{ m/c} < 0,451 \text{ m/c}$); demak qatlam qo'zgalmas holatda.

Qatlamdagi Reynolds kriteriysining qiymati aniqlanadi:

$$Re = \frac{2}{3} \cdot \frac{\phi}{(1-\varepsilon)} \cdot Re_o = \frac{2}{3} \cdot \frac{0,8}{(1-0,4)} \cdot \frac{0,284 \cdot 0,00205 \cdot 1,206}{1,85 \cdot 10^{-5}} = 33,7$$

Qarshilik koeffitsienti λ ushbu formuladan topiladi:

$$\lambda = \frac{133}{Re} + 2,34 = \frac{133}{33,7} + 2,34 = 6,29$$

Adsorbent qatlamining gidravlik qarshiligi hisoblanadi:

$$\Delta P_{kam} = \frac{3 \cdot \lambda \cdot H(1-\varepsilon) \cdot \rho \cdot w_o^2}{4 \cdot 0,4^3 \cdot 0,00205 \cdot 0,8} = \frac{3 \cdot 6,29 \cdot 0,65 \cdot (1-0,4) \cdot 1,206 \cdot 0,284^2}{4 \cdot 0,4^3 \cdot 0,00205 \cdot 0,8} = 1705 \text{ Pa}$$

Adsorberdagi gaz taqsimlovchi to'r parda va boshqa yordamchi elementlarning gidravlik qarshiligi qatlam qarshiligining 10% ni tashkil etadi deb qabul qilamiz. Unda, qurilmaning gidravlik qarshiligi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta P_{kur} = \Delta P_{kat} \cdot 1,1 = 1705 \cdot 1,1 = 1876 \text{ Pa}$$

Truba quvuridagi havoning tezligini $w = 10 \text{ m/s}$ deb qabul qilamiz. Unda, truba quvurining diametri (2.8) formuladan hisoblab chiqariladi.

$$d = \sqrt{\frac{4 \cdot 0,4}{3,14 \cdot 10}} = 0,226 \text{ m}$$

Tashqi diametri 245 mm va devorining qalinligi 7 mm bo'lgan po'lat truba tanlanadi. Trubaning ichki diametri $d = 0,231 \text{ m}$ va undagi haqiqiy tezlik quyidagiga teng bo'ladi:

$$w = \frac{0,4 \cdot 4}{3,14 \cdot 0,231^2} = 9,55 \text{ m/s}$$

Truba quvuridagi oqim uchun Reynolds kriteriysi:

$$Re = \frac{9,5 \cdot 0,231 \cdot 1,206}{1,85 \cdot 10^{-5}} = 149800$$

Truba quvuri ishlatilgan, ozgina emirilgan deb qabul qilamiz. Unda $\Delta = 0,15 \text{ mm}$ bo'lsa, quyidagi natijalar olinadi:

$$e = \frac{1,5 \cdot 10^{-5}}{0,231} = 6,49 \cdot 10^{-4}; \frac{1}{e} = 1541; 10 \cdot \frac{1}{e} = 15410$$

$$560 \cdot \frac{1}{e} = 862900; 15410 < Re = 143800 < 862900$$

Shunday qilib, λ ni hisoblash aralash ishqalanish zonasi uchun chiqarilgan (2.6) formuladan topish kerak.

$$\lambda = 0,11 \left(6,49 \cdot 10^{-4} + \frac{68}{143800} \right)^{0,25} = 0,020$$

Mahalliy qarshilik koeffitsientlari aniqlanadi:

- 1) trubaga kirish (o'tkir qirrali): $\xi_1 = 0,5$;
- 2) zadviyka: $d = 0,231 \text{ m}$ uchun $\xi_2 = 0,22$;
- 3) tirsak; $\xi_3 = 1,1$;
- 4) trubadan chiqish: $\xi_4 = 1$

Mahalliy qarshilik koeffitsientlarining yigindisi

$$\sum \xi = 0,5 + 0,22 + 4 \cdot 1,1 + 1 = 6,12 \text{ ga teng bo'ladi.}$$

Truba quvurining gidravlik qarshiligi (1.1) formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta P_{\text{гид}} = \left(\frac{0,02 \cdot 20}{0,231} + 6,12 \right) \cdot \frac{1,206 \cdot 9,55^2}{2} = 432 \text{ Па}$$

Qurilma va truba quvurlarining qarshiliklarini engish uchun ventilyator quyidagi miqdorda ortiqcha bosim bera olishi kerak:

$$\Delta P = \Delta P_{\text{kur}} + \Delta P_{\text{yuk}} = 1876 + 432 = 2308 \text{ Па}$$

Shunday qilib, o'rta bosimli ventilyator kerak ekan. Ventilyatorning foydali kuvvati (2.9) formuladan aniqlanadi:

$$N_{\phi} = \rho \cdot g \cdot H \cdot Q = Q \cdot \Delta P = 0,4 \cdot 2308 = 923 \text{ Вт} = 0,923 \text{ кВт}$$

Agar $\eta_{uz} = 1$ va $\eta_n = 0,6$ deb qabul qilinsa, unda elektrodvigatel o'qidagi quvvat (2.12) formulaga binoan quyidagaga teng bo'ladi:

$$N = \frac{0,923}{0,6 \cdot 1} = 1,54 \text{ kBm}$$

Ilovadagi 14 - jadvaldan ko'rinib turibdiki, olingan ma'lumotlarga St1-1450 ventilyatori mos keladi.

2.4. StIKLONNI HISOBLASH

20000 kg/s mikdordagi changli gaz aralashmasida chang zarrachalarining boshlanish konstantasiyasi $u_b = 0,5\%$ tozalangan gaz aralashmasidagi chang zarrachalarining oxirgi konstantasiyasi $u_0 = 0,05\%$, dispers faza sistemasining zichligi $\rho_s = 1250 \text{ kg/m}^3$, dispers muxitning zichligi $\rho_m = 1,06 \text{ kg/m}^3$, dispers muxitning qovushokdigi $\mu = 2,01 \cdot 10^{-5} \text{ N-s/m}^2$. Stiklonda cho'kayotgan chang zarrachalarining eng kichik diametri $d = 30 \cdot 10^{-6} \text{ m}$.

Iqiklonni hisoblash uchun jarayonning moddiy balans tenglamasi asosida tozalangan gaz va chang zarrachalarining miqdorini aniqlaymiz:

$$G_0 = G_s \frac{100 - y_0}{100 - y_s}$$

bu erda G_s – tozalanayotgan gaz aralashmasining miqdori

$$G_s = 20000 \text{ kg/s.}$$

$$C_0 = G_0 \frac{100 - y_0}{100 - y_s} = 20000 \frac{100 - 0,5}{100 - 0,05} = 19909,95 \text{ kg/s}$$

Gaz aralashmasidan ajratilgan chang zarrachalarining miqdori.

$$G_r = S_s - S_0 = 20000 - 19909,95 = 90,05 \text{ kg/s}$$

$$G_s = G_0 + G_r = 19909,95 + 90,05 = 20000 \text{ kg/s}$$

Sistemaning zichligi:

Iqiklonda kirayotgan changli gaz aralashmasining zichligi:

$$\rho_r = \frac{100}{\frac{y_0}{\rho_c} + \frac{100 - y_0}{\rho_{gm}}} = \frac{100}{\frac{0,5}{1250} + \frac{99,5}{1,06}} = 1,065$$

Tozalangan gazning zichligi:

$$\rho_n = \frac{100}{\frac{y_0}{100} + \frac{100 - y_0}{\rho_{gm}}} = \frac{100}{\frac{0,05}{100} + \frac{100 - 0,05}{1,06}} = 1,06 \text{ kg/m}^3$$

Sistemaning xajmi:

Kirayotgan changli gaz aralashmasining xajmi :

$$V_c = \frac{G_c}{\rho_k} = \frac{20000}{1,065} = 18779,3 \text{ m}^3$$

Tozalangan gaz aralashmasining xajmi:

$$V_m = \frac{G_0}{\rho_m} = \frac{19909,95}{1,06} = 18782,97 \text{ m}^3$$

Ajratilgan changli gaz zarrachalarining xajmi:

$$V_r = \frac{G_r}{\rho_c} = \frac{90,05}{1250} = 0,072 \text{ m}^3$$

Qurilmaning unumdorligi.

$$V_c = \frac{G_c}{\rho_{gm}} = \frac{20000}{1,06 \cdot 3600} = 5,24 \text{ m}^2$$

Konstruktiv hisob

Markaziy chiqish trubasining radiusini aniqlaymiz:

